

TURIZM INFRATUZILMASINING MAZMUNI, MOHIYATI VA O'ZIGA XOSLIGI

Tohirov Asilbek

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti

ORCID: 0009-0001-4143-7351

tokhirovasilbek153@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu tadqiqot ishida turizm infratuzilmasi mazmuni tahlili o'rganilib, mamlakatning transport tarmoqlari, raqamli (smart) xizmatlar, ekologik monitoring va favqulodda holatlarga moslashuvchanlik komponentlarini o'z ichiga olgan kompleks yondashuv asosida infratuzilma holatini baholashni ko'zlaydi. Tadqiqotda transport infratuzilmasi, smart tourism ilovalari, yashil infratuzilma va pandemiyagacha hamda undan keyingi moslashuv (resilience) omillari tahlil qilinadi. Shu bilan birga, mintaqaviy nomutanosiblik va raqamli inklyuzivlik muammolari ham yoritiladi, yaxshilash bo'yicha amaliy choralar tahlil qilinadi. Tadqiqotdan asosiy maqsad turizm infratuzilmasini integratsiyalashgan baholash modeliga asoslanib o'rganish, mavjud kuchli va zaif tomonlarni aniqlash va favqulodda vaziyatlarda moslashuvchanlikni oshirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish. Shuningdek, ushbu tadqiqot siyosatchilar va davlat boshqaruvi organlari, turizm sohasi operatorlari va raqamli platformalar egalari, akademik tadqiqotchilar va oliy ta'lim muassasasi talabalari, mahalliy jamoalar va mintaqaviy rivojlanish mutaxassislari hamda ekologiya va atrof-muhitni boshqarish tashkilotlari va urbanizatsiyani rivojlantiruvchi soha mutaxasislariga ahamiyatli hisoblanadi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi turizm infratuzilmasini transport, smart xizmatlar, ekologik monitoring va moslashuv komponentlarini birlashtirgan baholash modeli va empirik indikatorlar to'plamini ishlab chiqish orqali mavzuga yangi nazariy va amaliy hissa qo'shadi.

Kalit so'zlar: turizm infratuzilmasi, smart turizm, raqamli infratuzilma, transport tizimi, ekologik monitoring, moslashuvchanlik, mintaqaviy nomutanosiblik, qonunchilik va siyosat tahlili, barqaror rivojlanish, ekoturizm, turistik (map) marshrutlar, gastronomik turizm.

СОДЕРЖАНИЕ, СУТЬ И ХАРАКТЕРИСТИКИ ТУРИСТИЧЕСКОЙ ИНФРАСТРУКТУРЫ

Тохиоров Асилбек

Ташкентский международный университет Кимё

Аннотация. В данном исследовании проводится контент-анализ туристической инфраструктуры, направленный на оценку её состояния на основе комплексного подхода, включающего транспортные сети, цифровые (интеллектуальные) услуги, мониторинг окружающей среды и устойчивость к чрезвычайным ситуациям. В рамках работы анализируются транспортная инфраструктура, приложения для интеллектуального туризма, зелёная инфраструктура и факторы устойчивости в докризисный и постпандемийный периоды. Также освещаются проблемы регионального дисбаланса и цифровой инклюзии. Рассматриваются практические меры по совершенствованию инфраструктуры. Основная цель исследования заключается в изучении туристической инфраструктуры с использованием комплексной модели оценки, выявлении её сильных и слабых сторон и разработке предложений по повышению устойчивости к чрезвычайным ситуациям. Исследование представляет

интерес для политиков и государственных органов, туроператоров и владельцев цифровых платформ, учёных-исследователей и студентов, местных сообществ, специалистов по региональному развитию, а также организаций, занимающихся вопросами экологии, природопользования и урбанизации. Научная новизна работы определяется разработкой модели оценки и набора эмпирических показателей, объединяющих ключевые компоненты туристической инфраструктуры: транспорт, интеллектуальные услуги, экологический мониторинг и устойчивость. Это обеспечивает как теоретический, так и практический вклад в развитие исследований в области туризма.

Ключевые слова: туристическая инфраструктура, умный туризм, цифровая инфраструктура, транспортная система, мониторинг окружающей среды, устойчивость, региональные дисбалансы, правовой и политический анализ, устойчивое развитие, экотуризм, туристические маршруты, гастрономический туризм.

CONTENT, ESSENCE AND CHARACTERISTICS OF TOURISM INFRASTRUCTURE

Tokhirov Asilbek

Kimyo International University in Tashkent

Abstract. *This research study examines the content analysis of tourism infrastructure and aims to assess the state of infrastructure based on a comprehensive approach that includes the country's transport networks, digital (smart) services, environmental monitoring and resilience to emergencies. The study analyzes transport infrastructure, smart tourism applications, green infrastructure and resilience factors before and after the pandemic. At the same time, it also highlights the problems of regional imbalances and digital inclusion. Practical measures for improvement are analyzed. The main objective of the study is to study tourism infrastructure based on an integrated assessment model, identify existing strengths and weaknesses and develop proposals to increase resilience in emergencies. This study is also of importance to policymakers and government agencies, tourism operators and digital platform owners, academic researchers and students of higher education institutions, local communities and regional development specialists, as well as ecology and environmental management organizations and specialists in the field of urbanization development. The scientific novelty of the study is that it makes a new theoretical and practical contribution to the topic by developing an assessment model and a set of empirical indicators that combine the components of tourism infrastructure with transport, smart services, environmental monitoring and resilience.*

Keywords: *tourism infrastructure, smart tourism, digital infrastructure, transport system, environmental monitoring, resilience, regional imbalances, legal and policy analysis, sustainable development, ecotourism, tourist routes, gastronomic tourism.*

Kirish.

Turizm infratuzilmasi – bu turizm sanoatining normal ishlashi va barqaror rivojlanishi uchun zarur bo'lgan moddiy, moddiy bo'lmagan resurslar, inshootlar, tizimlar va xizmatlar majmuidir. U nafaqat sayyohlarning asosiy ehtiyojlarini qondirish, balki ularning safar tajribasini sifat jihatidan oshirish va yo'nalishning umumiy iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik barqarorligini ta'minlash vazifasini bajaradi. Turizm infratuzilmasi sifati uning miqdoriga qadar, hatto undan ham ko'proq ahamiyatga ega bo'lib, bu borada turistik yo'nalishning raqobatbardoshligi va uzoq muddatli muvaffaqiyati belgilanadi. Bular konvensiyalar, protokollar yoki memorandumlar shaklida bo'lib, turizm va ekologiya sohasida umumiy majburiyatlarni belgilaydi. Butunjahon Turizm Tashkilotining (UNWTO) hujjatlari, UNESCOning madaniy merosni muhofaza qilish to'g'risidagi konvensiyasi, ikki tomonlama investitsiya bitimlari va atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha xalqaro shartnomalar. Turizm

sohasida davlat siyosati istiqbolda hududlar va ularning infratuzilmasini kompleks jadal rivojlantirishda turizm sohasi yetakchilik qilishi, dolzarb ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni yechish, ish o'rinlarini ko'paytirish, hududlar diversifikatsiyasi va rivojlanishini ta'minlash, aholining daromadlari, yashash darajasi va sifatini oshirish hamda mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligi va imidjini yaxshilashga qaratilgan.

Tadqiqotning yangiligi – mazkur tadqiqot turizm infratuzilmasini baholashda **kompleks yondashuv**ni taklif etishi bilan ajralib turadi. Unda transport tarmoqlari, raqamli (intellektual) xizmatlar, ekologik monitoring va favqulodda vaziyatlarga bardoshlilik kabi tarkibiy qismlar yagona model asosida o'zaro integratsiya qilinadi. Shuningdek, tadqiqotda **pandemiya oldi va keyingi davrdagi barqarorlik omillari** tahlil qilinib, hududiy nomutanosiblik va raqamli inklyuziya muammolari ilmiy asosda yoritilgan. Bu yondashuv turizm infratuzilmasining kuchli va zaif tomonlarini aniqlash hamda amaliy takliflar ishlab chiqishga imkon beradi.

Qonunchilik va siyosat hujjatlari turizm infratuzilmasining barqaror rivojlanishi va samarali boshqaruvi mustahkam qonuniy hamda institutsional asos mavjud bo'lishini talab qiladi. Ushbu asos davlat tomonidan qabul qilinadigan qonunlar, strategiyalar, dasturlar va me'yoriy hujjatlar majmuasi – ya'ni turizm siyosati orqali shakllanadi. Qonunchilik va siyosat hujjatlari infratuzilma loyihalariga investitsiyalarni jalb qilish, ularning qurilishi va faoliyatini tartibga solish, shuningdek barqarorlik, xavfsizlik va raqobatbardoshlik talablarini belgilashda asosiy mexanizm vazifasini bajaradi. Umuman olganda, turizm infratuzilmasining rivojlanishi qonunchilik va siyosat hujjatlarining sifatiga bevosita bog'liqdir. Aniq, barqaror va investorlar uchun qulay qonunchilik muhiti infratuzilma loyihalariga kapital oqimini jalb qilish, ularning sifatini oshirish va mintaqaviy rivojlanishga xizmat qilishning asosiy omilidir. Shu sababli, turizm siyosatini ishlab chiqish va uni takomillashtirish davlatning turizm sohasidagi eng muhim ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar sharhi.

Turizm infratuzilmasining rivojlanishi bo'yicha qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirildi. Ilmiy izlanishlar asosan raqamli infratuzilma, pandemiyadan keyingi tiklanish, ekologik turizm, hududiy rivojlanish, transport tizimi, tibbiy turizm va davlat siyosatining turizmga ta'siri kabi yo'nalishlarni qamrab oldi.

Tadqiqotchilar Myrzabekova, Xalis, va Camlibellar (2021) tomonidan "Qozog'iston turizm sektorining transport infratuzilmasi bo'yicha mintaqamamlakatlaridagi o'rni" mavzusida ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan. Tadqiqotning tahlil va natijalari shuni ko'rsatadiki, Qozog'iston turizm sektorining Yevroosiyo mintaqasidagi raqobatbardoshligini oshirish, mamlakatlarning rivojlanish holatlaridagi farqlari va turizm sohasining raqobatbardoshligini transport va logistika infratuzilmasi dinamikasi bilan taqqoslash zaruratini ilmiy tahlillar bilan ko'rsatib o'tadi.

Kropinova, Kuznetsova, & Fedorovlar (2020) tomonidan "Regional differences in the level of tourism development in the Russian Federation" mavzusida ilmiy tadqiqot izlanish ishlari olib borilgan. Ushbu tadqiqot Rossiya Federatsiyasi bo'ylab turizmning rivojlanish darajasi tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Rossiyada turizm iqtisodiy rivojlanishning ustuvor yo'nalishi bo'lib, 2035 yilga qadar bo'lgan turizmni rivojlantirish strategiyasi esa turizm mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirish va barcha aholiga sifatli dam olish imkoniyatlarini yaratishni nazarda tutadi.

Tadqiqotchilar Zharas Berdenov, Yersin Kakimzhanov, Kamshat Arykbayeva, Kalibek Assylbekov, Jan Andrzej Wendt, Kulyash D. Kaimuldinova, Aidana Beketova, Gulshat Ataeva, Tolga Karalar (2024) tomonidan "Sustainable Development of the Infrastructure of the City of Astana Since the Establishment of the Capital as a Factor of Tourism Development" mavzusida ilmiy tadqiqot olib borilgan. Ushbu tadqiqotning ilmiy yangiligi Ostona shahridagi turizm infratuzilmasi holatini har tomonlama tushunishga imkon beradi, bu esa yirik shaharlardagi

turizm infratuzilmasi bo'yicha kelajakdagi tadqiqotlar va siyosatni ishlab chiqishda amaliy xizmat qiladi.

Ulrike Gretzel, Marianna Sigala, Zheng Xiang, Chulmo Koolar (2015) tomonidan "Smart tourism: foundations and developments" mavzusida ilmiy tadqiqot olib borilgan. Ushbu tadqiqotda aqlli turizmni rivojlantirish va boshqarishni yo'lga qo'yish uchun katta ehtiyoj borligiga e'tibor qaratiladi.

Mahalliy tadqiqotchi Shodmonova (2025) tomonidan "O'zbekistonda turizm infratuzilmasini rivojlantirishdagi to'siqlar: tanqidiy tahlil" mavzusida ilmiy tadqiqot olib borilgan. Ushbu tadqiqotga ko'ra, turizm industriyasining infratuzilmasini rivojlantirishga to'sqinlik qilayotgan aniq sabablar, jumladan cheklangan investitsiyalar, siyosiy bo'shliqlar va logistika muammolari tasvirlangan

Tadqiqotchilar Nurali Arabov, Dilmurod Nasimov, Bekzot Janzakov, Komiljon Homitov, Gulnoraxon Utemuratova, Dilshod Abduraimov, Baxit Ismoilovlar (2024) tomonidan "O'zbekiston turizmining kelajagini shakllantirish: infratuzilma ta'sirini chuqur tahlil qilish va strategik rejalashtirish" mavzusida ilmiy tadqiqot amalga oshirishgan. Tadqiqot tahliliga ko'ra, infratuzilmaning turizmga ta'siri har tomonlama baholanadi, uning turizm sanoatini shakllantirishdagi hal qiluvchi roli o'rganiladi. Ekspert usullari va so'rov tahlillari orqali tadqiqot O'zbekistonning 14 ta hududida transport, joylashtirish, turistik diqqatga sazovor joylar, qulayliklar va turizm xizmatlarining rivojlanish darajasini baholash orqali infratuzilma sifatini ta'kidlaydi.

Xorijlik hamda mahalliy tadqiqotchilar tomonidan amalga oshirilgan tahlil va natijalar shuni ko'rsatadiki, turizm infratuzilmasining rivojlanishi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar sohaga zamonaviy, raqamli va barqaror yondashuvlarni tatbiq etishda muhim ilmiy asos bo'ldi.

Mazkur tadqiqotlardan ko'rinib turibdiki, turizm infratuzilmasini rivojlantirishda zamonaviy, raqamli va barqaror yondashuvlarni qo'llaganligini tasdiqlaydi. Bu yondashuvlar esa turizm sohasida rivojlanayotgan mamlakatlar uchun ham innovatsion va strategik rivojlanish yo'nalishlari sifatida namoyon bo'ladi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu tadqiqotda turizm infratuzilma bozorining segmentatsiya jarayonlarini tahlil qilish va maqsadli auditoriyalarni aniqlash orqali xizmatlarni samarali rejalashtirish masalalari o'rganiladi. Ilmiy ish quyidagi metodologik yondashuvlarga asoslangan: nazariy tahlil, statistik tahlil usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.


Ilmiy tadqiqot tahlillari shuni ko'rsatadiki, turizm iqtisodiy rivojlanishning muhim drayveri sifatida mamlakat va hududlar uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Xususan, turizmning rivojlanishi nafaqat iqtisodiy foyda va investitsiyalar oqimini ta'minlaydi, balki mahalliy aholi farovonligi, infratuzilmaning modernizatsiyasi va ijtimoiy integratsiyani ham kuchaytiradi. Shu bilan birga, tadqiqot natijalari ayrim yo'nalishlarda tashrif buyuruvchilar oqimini oshirish orqali iqtisodiy imkoniyatlardan foydalanishga urg'u berilayotganini, boshqalarda esa turizm oqimlarini boshqarish va ularni uzoq muddatli barqaror rivojlanishga yo'naltirish ustuvor vazifa etib belgilanayotganini ko'rsatdi (1-rasm).

Tahlil shuni ko'rsatadiki, turizm siyosatida strategik rejalashtirish va milliy dasturlar bilan uyg'unlik muhim ahamiyat kasb etadi. Kuchliroq va diversifikatsiyalangan turizm iqtisodiyotini shakllantirish uchun quyidagi jihatlar asosiy natija sifatida ajratib ko'rsatildi:

- turizm faoliyatini diversifikatsiya qilish orqali iqtisodiy turg'unlikni oshirish;
- moslashtirilgan va maqsadli strategik yo'nalishlarni ishlab chiqish;
- samarali boshqaruv va muvofiqlashtirilgan tashkilot tuzilmalarini rivojlantirish;
- boshqaruv salohiyatini mustahkamlash;

- ilmiy dalillarga asoslangan qarorlar qabul qilish tizimini yaratish.

Umuman olganda, natijalar turizmning iqtisodiy rivojlanishdagi o'rnini nafaqat qisqa muddatli iqtisodiy foyda bilan, balki uzoq muddatli barqarorlik va ijtimoiy-iqtisodiy integratsiyani ta'minlovchi omil sifatida namoyon bo'layotganini tasdiqlaydi.



1-rasm. Turizm sanoati yo'nalishlarining iqtisodiy rivojlanishdagi o'rnini

Manba: Ўзбекистон Республикаси Туризм қўмитаси (ҳозирги Ўзбекистон Республикаси Туризм ва спорт вазирлиги), <https://tourism.gov.uz/>, Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси stat.uz ва Жаҳон сайёҳлик ташкилоти (UNWTO) расмий ҳисоботларидан олинган маълумотлар <https://www.unwto.org/>. asosida muallif tomonidan yaratildi.

1-rasmdan ko'rinib turibdiki, turizm iqtisodiy rivojlanishning nafaqat moliyaviy, balki **ijtimoiy va madaniy omillarini ham harakatga keltiruvchi kuchli drayver** hisoblanadi. Shu sababli turizm siyosati qisqa muddatli iqtisodiy natijalarga emas, balki **uzoq muddatli strategik barqarorlikka** asoslanishi zarur.

Turizm infratuzilmasi turizm industriyasini qo'llab-quvvatlash uchun birgalikda ishlaydigan bir nechta asosiy komponentlarni o'z ichiga oladi. Ushbu tarkibiy qismlarni uchta asosiy yo'nalishga bo'lish mumkin: transport tarmoqlari, turar joy imkoniyatlari va dam olish va qo'llab-quvvatlovchi ob'ektlar.

Turizm infratuzilmasining mazmuni va mohiyatini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, u nafaqat transport, turar joy va dam olish obyektlaridan iborat bo'lib, balki ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik tizimlarning o'zaro uyg'unlashuvini ham ifodalaydi. Infratuzilma darajasi mamlakatning turistik salohiyatini belgilovchi asosiy omil hisoblanadi. Shu bois, zamonaviy turizm infratuzilmasi nafaqat turistlarni jalb etish, balki xalqaro maydonda raqobatbardoshlikni ta'minlash vositasiga ham aylanmoqda.

Turizm infratuzilmasining asosiy komponentlari — transport tizimi, mehmonxonalar va qo'shimcha xizmatlar (ko'ngilochar maskanlar, gastronomiya, axborot texnologiyalari) o'zaro chambarchas bog'liq. Ayniqsa, xizmatlar sifati va turizm oqimlari o'rtasidagi bevosita bog'liqlik kuzatiladi. Infratuzilma rivoji nafaqat turistik oqimlarni ko'paytiradi, balki hududiy iqtisodiy o'sish, bandlik darajasi va ijtimoiy farovonlikka ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Quyidagi 1-jadvalda qayd etilgan PESTEL tahlili natijalariga ko'ra, turizm infratuzilmasining rivojlanishi siyosiy qo'llab-quvvatlovchi qarorlar va soliq imtiyozlari bilan mustahkamlanmoqda. Iqtisodiy jihatdan investitsiya oqimlari, xususan, davlat-xususiy sheriklik loyihalari asosiy manba bo'lib xizmat qilmoqda. Ijtimoiy omillar bandlikni oshirish va hududiy identitetni kuchaytirishga hissa qo'shmoqda. Texnologik rivojlanish raqamli xizmatlar va smart-infratuzilma orqali xizmatlar sifatini yuksaltirmoqda. Ekologik omillar yashil infratuzilma va barqaror turizm konsepsiyalarini talab qilmoqda. Huquqiy asos esa litsenziyalash va xalqaro standartlarga muvofiqlik orqali infratuzilma sifatini kafolatlamogda.

PESTEL tahlili. Turizm infratuzilmasi rivojlanishining siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, texnologik, ekologik, huquqiy tomonlari

Omillar	Asosiy jihatlar	Ta'siri
Siyosiy (P)	- Hukumat qarorlari va dasturlari orqali qo'llab-quvvatlash - Soliq imtiyozlari va davlat siyosati	Siyosiy barqarorlik va imtiyozlar yangi loyihalarga rag'bat yaratmoqda, investorlar uchun qulay sharoit shakllanmoqda.
Iqtisodiy (E)	- Investitsiya oqimlari, xususan davlat-xususiy sheriklik loyihalari - Aeroportlar, mehmonxonalar qurilishi	Iqtisodiy o'sish va bandlikni oshirishga xizmat qilmoqda, turizm xizmatlaridan daromadlar ortmoqda.
Ijtimoiy (S)	- Yangi ish o'rinlari yaratilishi - Hududiy identitetni kuchaytirish, madaniy merosni saqlash	Turizm infratuzilmasi ijtimoiy barqarorlik va jamiyat farovonligiga hissa qo'shmoqda.
Texnologik (T)	- Raqamli xizmatlar joriy etilishi - Smart-infratuzilma va onlayn rezervatsiya tizimlari	Xizmatlar sifati oshib, turistlar uchun qulaylik yaratilmoqda; global raqobatbardoshlik ortmoqda.
Ekologik (E)	- Yashil infratuzilma - Barqaror turizm konsepsiyalari	Atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologik turizmni rivojlantirish zarurati oshmoqda.
Huquqiy (L)	- Litsenziyalash tartiblari - Xalqaro standartlarga muvofiqlik	Huquqiy asos infratuzilma sifatini kafolatlab, xalqaro bozorda ishonchni kuchaytiradi.

Manba: Ўзбекистон Республикаси Туризм қўмитаси (ҳозирги Ўзбекистон Республикаси Туризм ва спорт вазирлиги), <https://tourism.gov.uz/>, Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси stat.uz ва Жаҳон сайёҳлик ташкилоти (UNWTO) расмий ҳисоботларидан олинган маълумотлар <https://www.unwto.org/>. asosida muallif tomonidan yaratildi.

Oxirgi o'n yillikdagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, turizm infratuzilmasi mamlakatlar miqyosida sezilarli darajada o'sdi. Xususan, xalqaro aeroportlar sonining ortishi, yangi mehmonxonalar va servis obyektlarining qurilishi turistik oqimlarning barqaror o'sishiga olib kelmoqda. Raqamli infratuzilmaning tezkor rivojlanishi esa turizm xizmatlarini yanada qulaylashtirdi. Shu bilan birga, ayrim hududlarda infratuzilma va turistik talab o'rtasida nomutanosiblik saqlanib qolayotgani ham kuzatilmoqda.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, turizm infratuzilmasining rivoji mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotiga bevosita ta'sir ko'rsatishi aniqlanadi.

PESTEL tahlili natijasida kuchli tomonlar sifatida siyosiy qo'llab-quvvatlash va raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi qayd etildi. Shu bilan birga, ekologik barqarorlik va ayrim hududlardagi infratuzilma nomutanosibliigi zaif tomon sifatida namoyon bo'ldi.

Natijada, kelgusida turizm infratuzilmasini rivojlantirishda transport tizimini modernizatsiya qilish, raqamli xizmatlarni kengaytirish va ekologik barqarorlikni ta'minlash ustuvor yo'nalishlar sifatida belgilanadi. Shu bilan birga, xalqaro tajriba sifatida Janubiy Koreya turizm sohasini o'rganish orqali innovatsion infratuzilma loyihalarini amalga oshirish tavsiya etiladi.

Shuningdek, 2019-yil 5-yanvarda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5611-sonli "Mamlakatda turizm sohasini jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmonga (2019) muvofiq, mamlakatda turizm infratuzilmasini yanada rivojlantirishning huquqiy asoslarini mustahkamlashda muhim asos sifatida e'tiborga olinadi. Farmonga binoan "2019-2025-yillarda O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish" bo'yicha Konsepsiya ishlab chiqilgan.

Konsepsiya tahlil natijalariga ko'ra, bugungi kunda O'zbekiston juda katta turizm va rekreatsiya salohiyatiga ega, unda jami 7,4 ming madaniy meros obyektlari mavjud, ulardan 209 tasi to'rtta muzey shaharlar — "Xiva shahridagi Ichan-qal'a", "Buxoro shahrining tarixiy markazi", "Shahrisabz shahrining tarixiy markazi", "Samarqand shahri" hududida joylashgan bo'lib, YUNESKO butunjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan (Farmon, 2019).

Tadqiqot natijalariga ko'ra, so'nggi yillarda turizm infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha yirik investitsiya loyihalari amalga oshirildi, shu jumladan Toshkent shahrida "Hyatt Regency Tashkent" va "Lotte City Hotel Tashkent Palace" brendli mehmonxonalar ochilishi, Toshkent shahrida madaniy-ko'ngilochar bog'larning tashkil etilishi, "Angren-Pop" temir yo'li ochilishi, Buxoro, Qarshi, Shahrisabz va Xiva shaharlariga tezyurar poyezdlar uchun elektrlashtirilgan temir yo'l qatnovlari joriy etilishi yanada amaliy ahamiyaga ega hisoblanadi.

2-jadval

**2019-2025-yillarda O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish
Konsepsiyasini amalga oshirishning maqsadli ko'rsatkichlari**

T/r	Ko'rsatkichlar nomi	2018-y.	2019-y.	2020-y.	2021-y.	2022-y.	2023-y.	2024-y.	2025-y.
1.	O'zbekistonga tashrif buyuradigan xorijiy turistlar soni (ming kishi)	5 346	6 041	7 010	8 410	10 010	10 600	11 250	11 810
2.	Turizm xizmatlari eksporti (mln AQSh dollari)	1 041	1 180	1 360	1 620	1 900	2 000	2 080	2 170
3.	Ichki turistlar soni (mingta tashrif)	15493	16 100	17 230	18 806	20 317	21 867	23 404	25 010
4.	Mehmonxonalar va shu kabi joylashtirish vositalari soni (dona)	914	1 100	1 620	2 200	2 600	2 800	2 900	3 050
5.	Joylashtirish vositalaridagi xonalar soni (ming)	20,2	24	35	47	55	59	62	64
6.	Joylashtirish vositalaridagi o'rinlar soni (ming)	41	49	72	95	110	122	124	128
7.	Turoperatorlar soni (nafar)	983	1 100	1 190	1 250	1 320	1 390	1 420	1450

Izoh: prognoz qilinayotgan ko'rsatkichlarga turizmni rivojlantirish bo'yicha davlat va hududiy dasturlarni amalga oshirish natijalaridan kelib chiqqan holda o'zgartirishlar kiritilishi mumkin.

Manba: Ўзбекистон Республикаси Туризм қўмитаси (ҳозирги Ўзбекистон Республикаси Туризм ва спорт вазирлиги), <https://tourism.gov.uz/>, Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси stat.uz ва Жаҳон сайёҳлик ташкилоти (UNWTO) расмий ҳисоботларидан олинган маълумотлар <https://www.unwto.org/>. asosida muallif tomonidan yaratildi.

Yuqorida 2-jadvalda qayd etilgan Konsepsiya tahlili natijalariga ko'ra, 2018–2025-yillar davomida O'zbekiston turizm sohasi barcha ko'rsatkichlar bo'yicha barqaror o'sish sur'atlarini namoyon qilmoqda. Xususan, xorijiy va ichki turistlar sonining ikki barobardan ko'proq oshishi, eksport hajmlarining ortishi hamda joylashtirish infratuzilmasining jadal rivojlanishi mamlakat turizm infratuzilmasi samaradorligi ortayotganidan dalolat beradi. Ushbu statistik tahlil natijalari mamlakatda infratuzilmaning rivojlanish taraqqiyotiga ilimiy hamda amaliy bo'lib xizmat qiladi,

Tahlil va natijalar muhokamasiga ko'ra, mamlakatda turizm sohasini rivojlantirishning asosiy maqsadlari va bosqichlari 2019-2025-yillarda O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirishning asosiy maqsadlari turizm sanoati infratuzilmasini milliy iqtisodiyotning strategik sohasiga aylantirish, hamda turistik xizmatlarni diversifikatsiyalash va sifatini oshirish hamda turistik infratuzilmani, shu jumladan xorijiy sarmoyalarni jalb qilish va samarali reklama-marketing ishlarini olib borish evaziga takomillashtirish orqali ko'rsatilgan maqsadli ko'rsatkichlarga erishishni nazarda tutadi.

Xulosa va takliflar.

Tadqiqotning statistik tahlil natijalariga ko'ra, so'nggi yillarda turizm infratuzilmasi jadal rivojlanib, xalqaro aeroportlar sonining ko'payishi, yangi mehmonxonalar, servis obyektlari va transport tarmoqlarining kengayishi turistik oqimlarning barqaror o'sishiga

xizmat qilgan. Shu bilan birga, ayrim hududlarda infratuzilma rivojlanishi bilan turistik talab o'rtasida nomutanosiblik mavjudligi ham aniqlangan.

Ushbu tadqiqotlarda aniqlanishicha, turizm infratuzilmasining samarali rivoji mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Siyosiy qo'llab-quvvatlash va soliq imtiyozlari kuchli tomon sifatida qayd etilgan bo'lsa, ekologik barqarorlik va hududiy infratuzilma nomutanosibligi zaif jihatlar sifatida ko'zga tashlanmoqda.

1.Transport tizimini modernizatsiya qilish – xalqaro va ichki turizmni rivojlantirish uchun yuqori sifatli transport(turistik marshrutlar) tizimni yaratish.

2. Raqamli xizmatlarni kengaytirish – smart-infratuzilma, onlayn rezervatsiya, mobil ilovalar va raqamli marketingni yanada rivojlantirish.

3.Ekologik barqarorlikni ta'minlash – yashil energiya, chiqindilarni qayta ishlash va ekologik turizm konsepsiyalarini keng joriy etish.

4.Xalqaro tajribani o'rganish – Janubiy Koreya kabi ilg'or davlatlarning innovatsion loyihalari asosida mahalliy sharoitga mos infratuzilma modelini ishlab chiqish.

Adabiyotlar/ Jumepamypa/ Reference:

Farmon (2019) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2019-yil 5-yanvar). Mamlakatda turizm sohasini jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida PF-5611-son Farmon. Toshkent. <https://lex.uz/acts/-4143188>.

Gretzel, U., Sigala, M., Xiang, Z. et al. Smart tourism: foundations and developments. *Electron Markets* 25, 179–188 (2015). <https://doi.org/10.1007/s12525-015-0196-8>.

Kropinova, E.G., Kuznetsova, T.Y., & Fedorov, G.M. (2020). REGIONAL DIFFERENCES IN THE LEVEL OF TOURISM DEVELOPMENT IN THE RUSSIAN FEDERATION. *GeoJournal of Tourism and Geosites*, 32(4), 1330–1336. <https://doi.org/10.30892/gtg.32421-577>.

Myrzabekova, M., Halis, M., & Camlibel, Z. (2021). The place of Kazakhstan tourism sector in the countries of the region in terms of transportation infrastructure. In C. Cobanoglu, & V. Della Corte (Eds.), <https://www.doi.org/10.5038/9781955833035>.

Qaror (2023) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 27.07.2023 yildagi PQ-238-son. Turizm yo'nalishidagi islohotlarni yanada jadallashtirish va sohada davlat boshqaruvi tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida

Shodmonova S. (2025) jild. 3 No 5: «Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot» jurnali <https://doi.org/10.5281/zenodo.15547291>.

Zharas Berdenov, Yersin Kakimzhanov, Kamshat Arykbayeva, Kalibek Assylbekov, Jan Andrzej Wendt, Kulyash D. Kaimuldinova, Aidana Beketova, Gulshat Ataeva, Tolga Karalar (2024) "Sustainable Development of the Infrastructure of the City of Astana Since the Establishment of the Capital as a Factor of Tourism Development" Faculty of Natural Sciences, L.N. Gumilyov Eurasian National University, 2 Satpayev Str., Astana 010000, Kazakhstan, Department of Geomatics and Digital Archeology, Margulan Institute of Archeology, Astana 010000, Kazakhstan, Institute of Socio-Economic Geography and Spatial Management, University of Gdańsk, 80-309 Gdańsk, Poland, Department of Geography and Ecology, Abai Kazakh National Pedagogical University, Almaty 050100, Kazakhstan, Ministry of National Education of Republic of Türkiye, Kocaeli 41040, Türkiye Sustainability 2024, 16 (24), 10931; <https://doi.org/10.3390/su162410931>.